

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

KARIMOV ROZIQ SODIQ O‘G‘LI

**GILBERT FAZOSI $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ DA OPTIMAL AYIRMALI
FORMULALAR VA ULARNING TATBIQLARI**

**01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika
(fizika-matematika fanlari)**

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-
mathematical sciences**

Karimov Roziq Sodiq o'g'li

Gilbert fazosi $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ da optimal ayirmali formulalar va ularning tatbiqlari .. 3

Каримов Розик Содик угли

Оптимальные разностные формулы в гильбертовом пространстве

$W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ и их приложения 21

Karimov Rozik Sodik ugli

Optimal difference formulas in the Hilbert space $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ and their

applications..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

KARIMOV ROZIQ SODIQ O‘G‘LI

**GILBERT FAZOSI $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ DA OPTIMAL AYIRMALI
FORMULALAR VA ULARNING TATBIQLARI**

**01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/FM1013 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (ik-fizmat.nuu.uz) va "Ziyonet" ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shadimetov Xalmatvay Maxkambayevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Normurodov Chori Begaliyevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xudoyberganov Mirzoali O'razaliyevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning "_____" _____ 2025-yil soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24; faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "_____" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Aripov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

Z.R. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, f.-m.f.d.

R.D. Aloyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida fizika va texnikadagi ko‘plab masalalar chiziqli va chiziqli bo‘lmagan oddiy differensial tenglamalar uchun chegaraviy yoki boshlang‘ich-chegaraviy masalalarga olib kelinadi. Shu kabi masalalarning analitik yechimga ega bo‘ladiganlari soni chegaralangan. Bu esa turli xil sonli usullardan foydalangan holda taqribiy yechimlarni topish zaruriyatiga olib keladi. Matematik fizika masalalarini sonli yechishning ancha samarali usuli bu chekli ayirmalar usuli yoki to‘r usuli hisoblanadi. Shu sababli, oddiy differensial tenglamalarga qo‘yilgan Koshi masalasini taqribiy yechish uchun optimal oshkor va oshkormas chekli-ayirmali formulalarni qurish, hamda funksiyalar sinfida ushbu optimal chekli-ayirmali formulalarning xossalari o‘rganish va ularning xatoliklarini baholash zamonaviy hisoblash matematikasining muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda ko‘plab muhandislik muammolari matematik jihatdan aniq yechimlar bilan emas, balki, asosan, fizik masalalarning yechimlari orqali yechiladi. Tabiat qonunlari haqidagi zamonaviy qarashlar bizga hal qilishimiz mumkin bo‘lgan masalalardan ko‘ra umumiyroq va murakkabroq muammolarni shakllantirish imkonini beradi. Fizik yoki muhandislik nuqtai nazaridan amalga oshiriladigan soddalashtirishlar, yechim jarayonining har bir bosqichida yaqinlashish sifatida qaralishi lozim. Masalan, uzluksiz masalalarni diskretlashtirish jarayonida bu usullar sonli usullardan foydalangan holda yechiladi, chunki bu usullar funksiyalar sinfida metod xatoligini minimal darajaga tushiradi. Shu sababli, funksiyalar sinfida chekli-ayirmali formulalarning optimal koeffitsientlarini topish va ularning xatoliklarini optimal baholarini hisoblash muhim ilmiy tadqiqot ishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental va amaliy masalalarni yechish maqsadida sonli tahlilning optimal usullarini ishlab chiqish va bu usullarning funksional fazolardagi xatoliklarini baholashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, hisoblash matematikasining sonli integrallash nazariyasiga alohida ahamiyat berilmoqda va bu borada Gilbert fazosida optimal chekli-ayirmali formulalarni qurish va funksiyalar sinfida ushbu formulalarning xatoliklarini baholash bo‘yicha muhim natijalarga erishildi. “Algebra, matematik tahlil, differensial tenglamalar nazariyasi, funksional tahlil, ehtimollar nazariyasi, hisoblash matematikasi va matematik modellashtirish”¹ ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Qaror ijrosini ta‘minlash uchun chekli-ayirmali formulalarni qurish va funksiyalar sinfida ularning xatoliklarini baholash muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvar PF-60 sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevral PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy- tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4708-son Qarori.

ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 20-aprel PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 27-aprel PQ-3682-sonli "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 7-may PQ-4708-sonli "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oddiy differensial tenglamalarni sonli yechish bugungi kunda ham katta muammo bo'lib qolmoqda. Shu sababli, hozirgi vaqtda ko'plab tadqiqotchilar ushbu muammo ustida ishlab kelmoqda. Xususan, S.Mehrkanoon, Z.A.Majid, M.Suleiman, K.I.Othman va Z.B.Ibrahim birinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasini uch nuqta va uch qadamdan foydalangan holda yechishning yangicha yondashuvi taklif qilishgan. Beuken L., Cheffert O., Tutueva A., Butusov D., Legat V. yangi yarim oshkor va yarim oshkormas prediktor-korrektor usullarini taqdim etishgan. Tadqiqot ishida ular turg'unlik sohalarini va taklif qilingan usullarning sonli turg'unligini o'rgandilar hamda yarim oshkor usullar an'anaviy prediktor-korrektor usullarga qaraganda yuqori sonli turg'unlikka ega ekanligini aniq ko'rsatdilar.

Osama Y. Ababneh chiziqli va nochiziqli holatlarda oddiy differensial tenglamalarni yechishning yangi sonli usullarini taqdim etdi. Adekoya Odunayo M. va Z.O.Ogunwobi ikkinchi tartibli differensial tenglamalar uchun Adams-Bashfort-Multon va Miln-Simpson usullarini kombinatsiyalashtirdi. Sajal K. Kar Adams-Bashfort sxemasidan yangi chekli-ayirmali prediktor-korrektor sxemani yaratish uchun foydalangan. Emil Vitasek va Praha abstrakt oddiy differensial tenglamani yechish uchun kerak bo'ladigan yuqori aniqlikdagi usullarni o'rgandilar. Omarova A.G. va V.G.Zverev oddiy differensial tenglamaga qo'yilgan Koshi masalasini o'rgandilar. Bu yerda ular Koshi masalasini taqribiy yechish uchun yangi maxsus ayirmali sxemalarni taklif qilishdi.

Ma'lumki, hisoblash algoritmlarini optimallashtirish masalasi S.L.Sobolev, V.L.Vaskevich, I.Babushka, G.Dalkvist, M.D.Ramazonov, V.I.Polovinkin, V.G.Gabdulxayev, I.V.Boykovlar tomonidan qaralgan va qarab kelinmoqda. Bu sohada olimlarimizdan G.N.Salixov, M.I.Israilov, X.M.Shadimetov, A.R.Hayotov, F.A.Nuraliev, D.M.Axmedov, S.S.Azamov, A.K.Boltaev va boshqalar ilmiy tadqiqot olib borishgan va borishmoqda. M.M.Aripov, R.D.Aloev va ularning shogirdlari nochiziqli parabolik tenglamalarning asimptotik avtomodel yechimlarini va ayirmali sxemalarning turg'unligini o'rganib kelishmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya

tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Hisoblash matematikasi laboratoriyasining “Gilbert fazolarida optimal kvadratur, interpolyatsion, ayirmali formulalar qurish va ularni integral va differensial tenglamalarni yechishga tatbiqlari” mavzusidagi kalendar rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oddiy differensial tenglamalarni taqribiy yechish uchun oshkor va oshkormas (ekstrapolyatsion va interpolyatsion) optimal chekli-ayirmali formulalar (chekli-ayirmali usullar yoki chekli-ayirmali sxemalar)ni qurish, shuningdek, differensiallanuvchi funksiyalar sinfida ularning xatolik funksionali normalarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

$W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda, ixtiyoriy $m \geq 2$ uchun ekstremal funksiyadan foydalanib, chekli ayirmali-formulalarning xatoligini topish;

chekli-ayirmali formulalarning optimal koeffitsiyentlarini topish uchun sistema olish;

$W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda, ixtiyoriy $m \geq 2$ uchun chekli-ayirmali formulalarni optimallashtirishning yangi algoritmini ishlab chiqish;

funksiyalarning $W_2^{(2,1)}(0,1)$ va $W_2^{(3,2)}(0,1)$ sinflarida ushbu algoritmni tatbiq qilish va chekli-ayirmali formulalarning optimal xatoliklarni hisoblash.

Tadqiqotning obyekti. Oddiy differensial tenglamalar, ekstrapolyatsion va interpolyatsion chekli-ayirmali sxemalar, chekli-ayirmali sxemalar xatoliklari bahosi.

Tadqiqotning predmeti. Differensiallanuvchi funksiyalar sinfida chekli-ayirmali formulalar xatoliklari.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida differensial tenglamalarni taqribiy yechish usullari, hisoblash matematikasining usullari va chekli-ayirmali usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

$W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda, ixtiyoriy $m \geq 2$ uchun ekstremal funksiyadan foydalanib, chekli ayirmali-formulalarning xatolik funksionallari normasi topilgan;

chekli-ayirmali formulalarning optimal koeffitsiyentlarini topish uchun Lagranj aniqmas ko‘paytuvchilar metodi yordamida sistema olingan;

$W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda, ixtiyoriy $m \geq 2$ uchun chekli-ayirmali formulalarni Sobolev metodi asosida optimallashtirishning algoritmi ishlab chiqilgan;

funksiyalarning $W_2^{(2,1)}(0,1)$ va $W_2^{(3,2)}(0,1)$ sinflarida ushbu algoritm tatbiq qilingan va chekli-ayirmali formulalarning optimal xatoliklari hisoblangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilgan chekli-ayirmali formulalar yordamida oddiy differensial tenglamalar uchun Koshi masalasini sonli yechishda qo‘llanilgan;

dissertatsiya natijalari shamol turbinalarining samarali parametrlarini aniqlash maqsadida tuzilgan matematik model tenglamalarini taqribiy yechishda qo‘llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi hisoblash matematikasi, matematik mantiqning qat'iyligi, funksional tahlil, optimallashtirish nazariyasi, diskret argumentli funksiyalar nazariyasi va chekli-ayirmali formulalar nazariyasiga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Gilbert fazosida oddiy differensial tenglamalarni taqribiy yechish uchun optimal oshkor va oshkormas chekli-ayirmali formulalarni qurish dissertatsiya ishi natijalarining ilmiy ahamiyatini belgilab beradi.

Ushbu tadqiqot ishida fizika, mexanika, elastiklik nazariyasi va tabiiy ravishda oddiy differensial tenglamalarga olib kelinadigan boshqa sohalarga oid masalalarni sonli yechish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan oshkor va oshkormas chekli-ayirmali formulalar qurilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gilbert fazosida oddiy differensial tenglamalarni taqribiy yechish uchun optimal chekli-ayirmali formulalar qurilgan va ularning algoritmlari ishlab chiqilgan bo'lib, quyidagi loyihalarda foydalanilgan:

ushbu dissertatsiya ishida olingan ilmiy natijalardan 2022–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan IL-21071166 “Shamolning past tezligi uchun mo'ljallangan vertikal o'qli shamol turbinasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihani bajarishda, ya'ni shamol turbinalarining samarali parametrlarini aniqlash maqsadida tuzilgan matematik model tenglamalarini taqribiy yechishda ushbu formulalardan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O'razboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining 2024-yil 8-iyuldagi 696-3-sonli ma'lumotnomasi). Natijada shamol elektr stansiyalari uchun samarali parametrlarni aniqlash maqsadida tuzilgan matematik model tenglamalarini taqribiy yechish imkonini bergan;

bundan tashqari tadqiqot ishida olingan ilmiy natijalaridan 2022–2023-yillarda Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan IL-5321091543 “Gaz tarmoqlarining topologik modelini yaratish va simulyatsiya qilish” mavzusidagi innovatsion loyihani bajarishda, ya'ni loyihada gaz tarmoqlarining topologik modelini yaratishda va simulyatsiya qilishda foydalanilgan (Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2024-yil 18-oktyabrdagi 4207/05-2-sonli ma'lumotnomasi). Natijada gaz tarmoqlarini simulyatsiya qilishning samarali modellari uchun differensial munosabatlarni taqribiy yechish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya ishi natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 9 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shu jumladan, 3 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida chop etilgan hamda elektron hisoblash mashinalari uchun dasturni rasmiy ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi bitta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, o'n beshta paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar

ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 97 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzu bo'yicha dunyo miqyosidagi ilmiy-tadqiqotlar sharhi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Gilbert fazosida optimal ayirmali formulalar qurish algoritmi**" deb nomlangan birinchi bobida Gilbert fazosida optimal chekli-ayirmali formulalar tadqiq qilingan. Dissertatsiyaning ushbu bobida Gilbert fazosida chekli-ayirmali formulalar qurish masalasi, ya'ni algebraik va funksional usullardan foydalanib chekli-ayirmali formulalar qurish masalasi keltirilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi chekli-ayirmali formulalar qurish masalasini algebraik qo'yishga bag'ishlangan.

Birinchi tartibli oddiy differensial tenglama uchun Koshi masalasining taqribiy yechimini topishni qaraymiz. Faraz qilaylik $x > 0$ da va $x = 0$ uchun boshlang'ich shart bilan berilgan

$$y' = f(x, y), x \in [0, 1], y(0) = y_0 \quad (1)$$

chiziqli bo'lmagan differensial tenglamani qanoatlantiruvchi, $x \in [0, 1]$ intervalda uzluksiz $y = y(x)$ funksiyani topish talab qilinsin, bu yerda $f(x, y)$ ikki o'zgaruvchili berilgan uzluksiz funksiyasi.

Agar $f(x, y)$ funksiya $D = \{x \in [0, 1], |y - y_0| \leq U\}$ to'rtburchak sohada aniqlangan bo'lsa va ixtiyoriy $(x, y_1), (x, y_2) \in D$ uchun y o'zgaruvchi bo'yicha

$$|f(x, y_1) - f(x, y_2)| \leq L|y_1 - y_2|$$

Lipshits shartini qanoatlantirsa, u holda (1) masala yagona yechimga ega bo'ladi, bu yerda $L = \text{const} > 0$. (1) masalaning taqribiy yechimini topish uchun $[0, 1]$ kesmani

uzunligi $h = \frac{1}{N}$ bo'lgan N ta qismlarga ajratamiz va $x_n = nh$ $n = 0, 1, \dots, N$ tugun

nuqtalarda qidirilayotgan $y(x)$ yechimning taqribiy qiymatlarini y_n bilan belgilaymiz. (1) masalaning taqribiy yechimini topish uchun Eyler usulidan foydalanish mumkin:

$$y_{n+1} = y_n + hy'_n, \quad (2)$$

bu yerda $y'_n = f(x_n, y_n)$, hamda x_{n+1} tugun nuqtadagi y_{n+1} taqribiy qiymat x_n tugun nuqtadagi funksiya va uning hosilalari qiymatlarining chiziqli kombinatsiyasi orqali aniqlanadi.

Dastlabki nuqtalarda y'_n dan foydalanib, $y'(x)$ uchun

$$y'(x) = y'_n + \frac{1}{h}(x - x_n)\nabla y'_n + \frac{1}{2!h^2}(x - x_n)(x - x_{n-1})\nabla^2 y'_n + \\ + \frac{1}{3!h^3}(x - x_n)(x - x_{n-1})(x - x_{n-2})\nabla^3 y'_n + \dots$$

interpolyatsion formulani qurish mumkin, bu erda ∇ chap chekli ayirmani bildiradi, ya'ni $\nabla z_n = z_n - z_{n-1}$. Ushbu interpolyatsion formulani $[x_n, x_{n+1}]$ kesmada integrallab,

$$y_{n+1} = y_n + h \left(y'_n + \frac{1}{2}\nabla y'_n + \frac{5}{12}\nabla^2 y'_n + \frac{3}{8}\nabla^3 y'_n + \dots \right)$$

Adams-Bashfort formulasini olamiz.

Xuddi shunday, $[x_{n-1}, x_n]$ kesmada integrallab,

$$y_n = y_{n-1} + h \left(y'_n - \frac{1}{2}\nabla y'_n - \frac{1}{12}\nabla^2 y'_n - \frac{1}{24}\nabla^3 y'_n \dots \right)$$

Adams-Multon formulasini olamiz.

Bundan tashqari, ushbu interpolyatsion formulani $[x_{n-1}, x_{n+1}]$ va $[x_{n-2}, x_n]$ kesmalarda integrallash orqali

$$y_{n+1} = y_{n-1} + h \left(2y'_n + \frac{1}{3}\nabla^2 y'_n + \frac{1}{3}\nabla^3 y'_n + \dots \right)$$

Nistryomning oshkor formulasini va

$$y_n = y_{n-2} + h \left(2y'_n - 2\nabla y'_n + \frac{1}{3}\nabla^2 y'_n + \dots \right)$$

Miln-Simpsonning oshkormas formulasini olamiz.

Bu formulalar *Dalkvist ma'nosida* turg'undir. Shunga o'xshash formulalar taqribiy differensiallash va boshqa usullar yordamida ham olinishi mumkin.

Umumiy chekli-ayirmali formula. Endi yuqoridagilarni hisobga olgan holda

$$\sum_{\beta=0}^k C_{\beta} y_{n+\beta} = h \sum_{\beta=0}^k C_{\beta}^{(1)} y'_{n+\beta}, \quad n = 0, 1, \dots, N - k, \quad C_k \neq 0 \quad (3)$$

umumiy chekli-ayirmali usulni

$$y_i = y_{0,i}, \quad i = 0, 1, \dots, k - 1$$

boshlang'ich shartlar bilan ko'rib chiqamiz, bu yerda $y'_{\beta} = f(x_{\beta}, y_{\beta})$, $x_{\beta} = h\beta$,

$$\beta = 0, 1, \dots, N, \quad k = 1, 2, \dots, N, \quad h = \frac{1}{N}, \quad N = 1, 2, \dots$$

Shunday qilib, (3) formula y_k ni dastlabki k ta y_i qiymatlari orqali aniqlanganligi sababli, u k -tartibli chekli-ayirmali formula deb ataladi. Agar $C_k^{(1)} \neq 0$ bo'lsa, u holda formula *oshkormas*; aks holda, ya'ni $C_k^{(1)} = 0$ bo'lsa, formula *oshkor* deyiladi.

(3) formulaning $y = y(x)$ yechimidagi approksimatsiya xatoligi

$$R_k = \sum_{\beta=0}^k C_\beta y(x_\beta) - h \sum_{\beta=0}^k C_\beta^{(1)} f(x_\beta, y(x_\beta)) \quad (4)$$

formula bilan aniqlanadi.

Chekli-ayirmali formulalarning yaqinlashishi.

1-ta'rif. Agar quyidagi

$$\sum_{\beta=0}^k C_\beta = 0, \quad \sum_{\beta=0}^k \frac{\beta^s C_\beta}{s!} = h \sum_{\beta=0}^k \frac{\beta^{s-1} C_\beta^{(1)}}{(s-1)!}, \quad s = 1, 2, \dots, p, \quad (0^0 \equiv 1). \quad (5)$$

shartlar bajarilsa, u holda (3) chekli-ayirmali formula $p \geq 0$ tartibli deyiladi.

Agar bu shartlar bajarilsa, u holda yetarli darajada silliq $y(x)$ funksiya uchun Teylor formulasidan foydalanib

$$\sum_{\beta=0}^k C_\beta y(x + h\beta) - h \sum_{\beta=0}^k C_\beta^{(1)} y'(x + h\beta) = A_{p+1} h^{p+1} y^{(p+1)}(x) + O(h^{p+2})$$

oson tekshiriladi, bu yerda A_{p+1} – qandaydir o'zgarmas.

Bundan kelib chiqadiki, p -tartibli (3) chekli-ayirmali formula (1) differensial tenglamaga aniqligi h^{p+1} tartib bilan lokal yaqinlashadi, ya'ni (1) tenglamada

$$C_k y(x + hk) - h C_k^{(1)} f(x + hk, y(x + hk))$$

hisoblashda yuzaga keladigan xatolik h^{p+1} tartibda bo'ladi.

Shunday qilib, p tartibli (3) chekli-ayirmali formula bo'yicha (1) tenglamani lokal approksimatsiya tartibi h^{p+1} bo'ladi.

Bundan kelib chiqadiki, yuqorida qayd etilganlardan shuni aytish mumkinki (3) formula koeffitsiyentlariga ba'zi qo'shimcha shartlar qo'yilishi kerak. Bu kabi muammolarni G.Dalkvist batafsil o'rgangan.

2-ta'rif. Agar

$$P(\zeta) = \sum_{\beta=0}^k C_\beta \zeta^\beta$$

xarakteristik ko'phadning barcha ζ_i ildizlari uchun $|\zeta_i| \leq 1$ yoki $|\zeta_i| = 1$ ildizlari bir karrali bo'lsa, u holda (3) chekli-ayirmali formula Dalkvist ma'nosida turg'un deyiladi.

Ikkinchi paragrafda biz (4) xatolikni (5) shartlarga ko'ra, C_β va $C_\beta^{(1)}$ koeffitsiyentlar bo'yicha minimallashtiramiz, ya'ni chekli-ayirmali formulalar qurishning funksional qo'yilishini qaraymiz. Buning uchun $\varphi(h\beta) = y(h\beta)$ va $\varphi'(h\beta) = y'(h\beta)$ belgilashlarni olamiz, bu yerda $y'(h\beta) = f(h\beta, \varphi(h\beta))$.

Endi chekli-ayirmali formulalar qurish masalasini funksional qo'yamiz. Quyidagi

$$\sum_{\beta=0}^k C_\beta \varphi(h\beta) - h \sum_{\beta=0}^k C_\beta^{(1)} \varphi'(h\beta) \cong 0 \quad (6)$$

ko'rinishdagi chekli-ayirmali formulalar qurish masalasini ko'rib chiqamiz. Bunda C_β va $C_\beta^{(1)}$ chekli-ayirmali formulalarning koeffitsiyentlari. Ko'rib chiqilayotgan

masalalar sinfi berilgan $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ funksiyalar sinfida aniqlanadi, ya'ni biz qarayotgan $\varphi(x)$ funksiyalar $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ Gilbert fazosining haqiqiy funksiyalar sinfidan olingan. Bu fazoda skalyar ko'paytma

$$\langle \varphi, \psi \rangle = \int_0^1 (\varphi^{(m)}(x) + \varphi^{(m-1)}(x))(\psi^{(m)}(x) + \psi^{(m-1)}(x)) dx \quad (7)$$

tenglik bilan aniqlanadi.

Aytaylik $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ fazo $C(0,1)$ uzluksiz funksiyalar fazosida joylashgan, u holda chekli-ayirmali formulalarning xatolik funksionali

$$\begin{aligned} \ell(\varphi) &= (\ell, \varphi) = \sum_{\beta=0}^k C_\beta \varphi(h\beta) - h \sum_{\beta=0}^k C_\beta^{(1)} \varphi'(h\beta) = \\ &= \int_{-\infty}^{\infty} \left[\sum_{\beta=0}^k C_\beta \delta(x - h\beta) + h \sum_{\beta=0}^k C_\beta^{(1)} \delta'(x - h\beta) \right] \varphi(x) dx \end{aligned} \quad (8)$$

chiziqlidir.

(8) tenglikka chekli-ayirmali formulalar xatoligi deyiladi. $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda chekli-ayirmali formulalarning xatoligi deb

$$\ell(W_2^{(m,m-1)}) = \sup_{\varphi \in W_2^{(m,m-1)}} |\ell(\varphi)| \quad (9)$$

kattalikka aytiladi.

Qaralayotgan sinfda

$$\overset{\circ}{\ell}(W_2^{(m,m-1)}) = \inf_{C_\beta, C_\beta^{(1)}} \left\| \ell(W_2^{(m,m-1)}) \right\| \quad (10)$$

optimal chekli-ayirmali formula uchun *quyi chegara* deyiladi. Agar

$$\ell(W_2^{(m,m-1)}) = \overset{\circ}{\ell}(W_2^{(m,m-1)})$$

uchun chekli-ayirmali formula mavjud bo'lsa, bunday chekli-ayirmali formula qaralayotgan sinfda *optimal chekli-ayirmali formula deyiladi*. Hamda $\overset{\circ}{C}_\beta$ va $\overset{\circ}{C}_\beta^{(1)}$ koeffitsiyentlar chekli-ayirmali formulaning *optimal koeffitsiyentlari* deb ataladi.

Optimal chekli-ayirmali formulalar qurish masalasining funksional qo'yilishi $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ funksiyalar sinfida chekli-ayirmali formulalar xatoligini minimallashtirishdan iborat. $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ fazo Gilbert fazosi bo'lganligi sababli, ushbu sinfda xatolik chekli-ayirmali formulalarning (8) xatolik funksionali normasiga mos keladi. Funksiyalar sinfida chekli-ayirmali formulalarning xatoligini topish uchun ekstremal funksiyadan foydalanamiz.

3-ta'rif. Agar $\psi_\ell(x) \in W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ funksiya uchun

$$(\ell, \psi_\ell) = \left\| \ell | W_2^{(m,m-1)*} \right\| \cdot \left\| \psi_\ell | W_2^{(m,m-1)} \right\|$$

tenglik o'rinli bo'lsa, unga (6) chekli-ayirmali formulaning ekstremal funksiyasi deyiladi.

$\psi_\ell(x)$ funksiya Riss elementi hisoblanadi. Demak, Riss teoremasiga asosan quyidagilar kelib chiqadi:

$$(\ell, \varphi) = \langle \psi_\ell, \varphi \rangle, \quad (11)$$

$$\|\ell | W_2^{(m,m-1)*}(0,1)\| = \|\psi_\ell | W_2^{(m,m-1)}(0,1)\|.$$

Shunday qilib, quyidagi teorema o‘rinlidir.

1-teorema. Gilbert fazosi $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ da (6) chekli-ayirmali formulaning maksimalashtiruvchi elementi, ya’ni ekstremal funksiyasi uchun

$$\psi_\ell(x) = (-1)^m \ell(x) * G_m(x) + de^{-x} + P_{m-2}(x) \quad (12)$$

ifoda o‘rinlidir, bu yerda

$$G_m(x) = \frac{\text{sign}(x)}{2} \left(\frac{e^x - e^{-x}}{2} - \sum_{j=1}^{m-1} \frac{x^{2j-1}}{(2j-1)!} \right)$$

Grin funksiyasi yoki

$$G_m^{(2m)}(x) - G_m^{(2m-2)}(x) = \delta(x)$$

tenglamaning fundamental yechimi, d – ixtiyoriy o‘zgarmas, $P_{m-2}(x)$ – ixtiyoriy $(m-2)$ – darajali ko‘phad.

Uchinchi paragrafda ekstremal funksiyadan foydalanib, $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ funksiyalar sinfida chekli-ayirmali formulaning xatoligi topiladi.

2-teorema. $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda (6) chekli-ayirmali formulaning xatoligi, ya’ni (6) chekli-ayirmali formula xatolik funksionali normasining kvadrati uchun

$$\begin{aligned} \|\ell | W_2^{(m,m-1)*}\|^2 = & (-1)^m \left[\sum_{\gamma=0}^k C_\gamma \sum_{\beta=0}^k C_\beta G_m(h\gamma - h\beta) - \right. \\ & \left. - 2h \sum_{\gamma=0}^k C_\gamma^{(1)} \sum_{\beta=0}^k C_\beta G'_m(h\gamma - h\beta) - h^2 \sum_{\gamma=0}^k C_\gamma^{(1)} \sum_{\beta=0}^k C_\beta^{(1)} G''_m(h\gamma - h\beta) \right] \quad (13) \end{aligned}$$

tenglik o‘rinlidir, bu yerda $G'_m(x)$ va $G''_m(x)$ ma’lum funksiyalar.

$W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda chekli-ayirmali formulalarning xatoligini $(\ell, x^\alpha) = 0, \alpha = 0, 1, \dots, m-2$, $(\ell, e^{-x}) = 0$ shartlarga muvofiq $C_\beta^{(1)}, \beta = 0, 1, \dots, k$ koefitsiyentlar bo‘yicha minimallashtiramiz.

To‘rtinchi paragrafda $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda chekli-ayirmali formulalar xatoligini koefitsiyentlar bo‘yicha minimallashtirish orqali chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi olinadi.

Endi, $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda chekli-ayirmali formulalar xatoligining, ya’ni chekli-ayirmali formulalar xatolik funksionali normasining minimumini topish uchun Lagranjning aniqmas ko‘paytuvchilar usulidan foydalanamiz. Buning uchun

$$\Psi(\mathbf{C}, \mathbf{C}^{(1)}, \boldsymbol{\lambda}) = \|\ell | W_2^{(m,m-1)*}\|^2 - 2(-1)^m \sum_{\alpha=0}^{m-2} \lambda_\alpha (\ell, x^\alpha) - 2(-1)^m \lambda_{m-1} (\ell, e^{-x})$$

yordamchi funksiyani qaraymiz. Bu yerda $\mathbf{C} = (C_0, C_1, \dots, C_k)$, $\mathbf{C}^{(1)} = (C_0^{(1)}, C_1^{(1)}, \dots, C_k^{(1)})$

va $\boldsymbol{\lambda} = (\lambda_0, \lambda_1, \dots, \lambda_{m-1})$.

$\Psi(C, C^{(1)}, \lambda)$ funksiyadan $C_\beta^{(1)}, \beta = 0, 1, \dots, k$ va $\lambda_\alpha, \alpha = 0, 1, \dots, m-1$ lar bo'yicha olingan barcha xususiy hosilalarni hisoblaymiz.

Keyin, olingan xususiy hosilalarni nolga tenglashtirib

$$\frac{\partial \Psi}{\partial C_\beta^{(1)}} = 0, \quad \beta = 0, 1, \dots, k,$$

$$\frac{\partial \Psi}{\partial \lambda_\alpha} = 0, \quad \alpha = 0, 1, \dots, m-1$$

tengliklarga ega bo'lamiz.

Ushbu tengliklar $C_\beta^{(1)}$ va λ_α larni topish uchun quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini beradi

$$h \sum_{\gamma=0}^k C_\gamma^{(1)} G_m''(h\beta - h\gamma) + \alpha h \sum_{\alpha=0}^{m-2} \lambda_\alpha (h\beta)^{\alpha-1} + \lambda_{m-1} e^{-h\beta} = - \sum_{\gamma=0}^k C_\gamma G_m'(h\beta - h\gamma), \quad \beta = 0, 1, \dots, k, \quad (14)$$

$$h\alpha \sum_{\gamma=0}^k C_\gamma^{(1)} (h\gamma)^{\alpha-1} = \sum_{\gamma=0}^k C_\gamma (h\gamma)^\alpha, \quad \alpha = 0, 1, \dots, m-2, \quad (15)$$

$$h \sum_{\gamma=0}^k C_\gamma^{(1)} e^{-h\gamma} = - \sum_{\gamma=0}^k C_\gamma e^{-h\gamma}, \quad (16)$$

bu yerda $G_m'(h\beta)$ va $G_m''(h\beta)$ ma'lum funksiyalar.

(14)-(16) sistemani yechish orqali, biz chekli-ayirmali formulalarning $C_\beta^{(1)}, \beta = 0, 1, \dots, k$ optimal koeffitsiyentlarini va diskret argumentli optimal funksiyaning $\lambda_\alpha, \alpha = 0, 1, \dots, m-1$ koeffitsiyentlarini olamiz.

Shunday qilib, (11) tenglamaning umumiy yechimi qaralayotgan (12) formula uchun, (12) va (14) tengliklardan $\psi'_\ell(h\beta) = 0$ ekanligini osongina ko'rish mumkin va bu Babushkaning teoremasida isbotlangan.

(14)-(16) sistema yechimining mavjud va yagonaligi uchun navbatdagi o'rinli.

3-teorema. (14)-(16) sistemaning yechimi mavjud va u yagonadir.

Beshinchi paragrafda chekli-ayirmali formulalarning optimal koeffitsiyentlarini topish algoritmi berilgan.

Bu algoritmnı amalga oshirish uchun (14)-(16) sistemani

$$h \sum_{\gamma=0}^k C_\gamma^{(1)} G_m''(h\beta - h\gamma) + P_{m-3}(h\beta) + \lambda_{m-1} e^{-h\beta} = f_m(h\beta), \quad \beta = 0, 1, \dots, k, \quad (17)$$

$$h \sum_{\gamma=0}^k C_\gamma^{(1)} (h\gamma)^{\alpha-1} = g_\alpha, \quad \alpha = 1, 2, \dots, m-2, \quad (18)$$

$$h \sum_{\gamma=0}^k C_\gamma^{(1)} e^{-h\gamma} = g_k \quad (19)$$

ko'rinishda qayta yozib olamiz, bu yerda $h = \frac{1}{N}, N = 1, 2, \dots,$

$$G'_m(h\beta - h\gamma) = \frac{\text{sign}(h\beta - h\gamma)}{2} \left(\frac{e^{h\beta - h\gamma} + e^{h\gamma - h\beta}}{2} - \sum_{j=1}^{m-1} \frac{(h\beta - h\gamma)^{2j-2}}{(2j-2)!} \right), \quad (20)$$

$$f_m(h\beta) = -\sum_{\gamma=0}^k C_\gamma G'_m(h\beta - h\gamma), \quad \beta = 0, 1, \dots, k, \quad (21)$$

$$G''_m(h\beta - h\gamma) = \frac{\text{sign}(h\beta - h\gamma)}{2} \left(\frac{e^{h\beta - h\gamma} - e^{h\gamma - h\beta}}{2} - \sum_{j=1}^{m-2} \frac{(h\beta - h\gamma)^{2j-1}}{(2j-1)!} \right), \quad (22)$$

C_β - berilgan koeffitsientlar,

$$g_\alpha = \frac{1}{\alpha} \sum_{\gamma=0}^k C_\gamma (h\gamma)^\alpha, \quad \alpha = 1, 2, \dots, m-2, \quad (23)$$

$$g_k = -\sum_{\gamma=0}^k C_\gamma e^{-h\gamma}. \quad (24)$$

Oltinchi paragrafda esa Adams tipidagi oshkor chekli-ayirmali formulalarni ko'rib chiqamiz. Agar (6) formuladagi C_β koeffitsiyentlar

$$C_\beta = \begin{cases} 1, & \text{при } \beta = k, \\ -1, & \text{при } \beta = k-1, \\ 0, & \text{при } \beta = 0, 1, \dots, k-2 \end{cases} \quad (25)$$

tenglik bilan aniqlansa, u holda

$$\varphi(hk) - \varphi(hk - h) \cong h \sum_{\beta=0}^{k-1} C_\beta^{(1)} \varphi'(h\beta)$$

chekli-ayirmali formula Adams tipidagi *oshkor chekli-ayirmali formula* deyiladi.

Adams tipidagi chekli-ayirmali formulalarning optimal koeffitsiyentlarini ifodalash uchun quyidagi teoremlar o'rinli.

4-teorema. $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda, $m \geq 3$ holda Adams tipidagi oshkor chekli-ayirmali formulalarning $\overset{\circ}{C}_\beta^{(1)}$, $\beta = 1, 2, \dots, k-2$ optimal koeffitsiyentlari uchun

$$\overset{\circ}{C}_\beta^{(1)} = \sum_{j=1}^{m-2} (M_j \cdot \lambda_j^\beta + N_j \lambda_j^{k-\beta}), \quad \beta = 1, 2, \dots, k-2 \quad (26)$$

ifoda o'rinlidir, bu yerda λ_j lar $(2m-4)$ -darajali $P_{2m-4}(\lambda)$ ko'phadning $|\lambda_j| < 1$ ildizlar, M_j va N_j noma'lum parametrlar.

5-teorema. $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda, $m \geq 3$ holda Adams tipidagi oshkor chekli-ayirmali formulalarning $\overset{\circ}{C}_0^{(1)}$ va $\overset{\circ}{C}_{k-1}^{(1)}$ optimal koeffitsiyentlari uchun

$$\overset{\circ}{C}_0^{(1)} = \frac{e^h - he^h - 1}{he^h(e^{hk-h} - 1)} + \frac{1}{e^{hk-h} - 1} \sum_{j=1}^{m-2} \left[\frac{(M_j + N_j \lambda_j)(1 - \lambda_j^{k-2}) \lambda_j}{1 - \lambda_j} - \right]$$

$$\left. \frac{M_j(e^{hk-2h} - \lambda_j^{k-2})(\lambda_j e^h - 1)\lambda_j e^h + N_j(\lambda_j^{k-2} e^{hk-2h} - 1)(e^h - \lambda_j)\lambda_j^2 e^h}{(e^h - \lambda_j)(\lambda_j e^h - 1)} \right], \quad (27)$$

$$C_{k-1}^{(1)} = \frac{he^{hk} - e^h + 1}{he^h(e^{hk-h} - 1)} - \frac{e^{hk-h}}{e^{hk-h} - 1} \sum_{j=1}^{m-2} \left[\frac{(M_j + N_j \lambda_j)(1 - \lambda_j^{k-2})\lambda_j}{1 - \lambda_j} - \frac{M_j(e^{hk-2h} - \lambda_j^{k-2})(\lambda_j e^h - 1)\lambda_j + N_j(\lambda_j^{k-2} e^{hk-2h} - 1)(e^h - \lambda_j)\lambda_j^2}{(e^h - \lambda_j)(\lambda_j e^h - 1)e^{hk-2h}} \right] \quad (28)$$

ifodalar o‘rinlidir.

Dissertatsiyaning “ $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazoda oshkor va oshkormas optimal chekli-ayirmali formulalar qurish va ularning xatoliklarini baholash” deb nomlangan ikkinchi bobi $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazoda optimal oshkor va oshkormas chekli-ayirmali formulalar qurishga bag‘ishlangan. Dissertatsiyaning ushbu bobida dastlab $D_1(h\beta)$ diskret operator yordamida Gilbert fazosi $W_2^{(2,1)}(0,1)$ da Adams tipidagi chekli-ayirmali formulalarning optimal koeffitsiyentlari topilgan. Keyinchalik, $W_2^{(2,1)}(0,1)$ sinfda chekli-ayirmali formulalar xatoligining optimal baholari olingan, ya’ni $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazoda chekli-ayirmali formulalar xatolik funksionali normasining kvadrati hisoblab chiqilgan.

Ushbu bobning asosiy natijalari quyidagilardan iborat.

6-teorema. Gilbert fazosi $W_2^{(2,1)}(0,1)$ da

$$\varphi(hk) - \varphi(hk - h) \cong h \sum_{\beta=0}^{k-1} C_{\beta}^{(1)} \varphi'(h\beta) \quad (29)$$

Adams tipidagi oshkor chekli-ayirmali formulaning optimal koeffitsientlari uchun

$$C_{\beta}^{(1)} = \begin{cases} 0 & \text{npu } 0 \leq \beta \leq k-2, \\ \frac{e^h - 1}{he^h} & \text{npu } \beta = k-1 \end{cases}$$

ifoda o‘rinlidir.

Demak, $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazoda optimal oshkor chekli-ayirmali formula quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\varphi_{n+k} = \varphi_{n+k-1} + \frac{e^h - 1}{e^h} \varphi'_{n+k-1}, \quad n = 0, 1, \dots, N-k, \quad k \geq 1.$$

7-teorema. Gilbert fazosi $W_2^{(2,1)}(0,1)$ da

$$\varphi(hk) - \varphi(hk - h) \cong h \sum_{\beta=0}^k C_{\beta}^{(1)} \varphi'(h\beta) \quad (30)$$

Adams tipidagi oshkormas chekli-ayirmali formulaning optimal koeffitsientlari uchun

$$C_{\beta}^{\circ(1)} = \begin{cases} 0 & npu \quad \beta = 1, 2, \dots, k-2, \\ \frac{e^h - 1}{h(e^h + 1)} & npu \quad \beta = k-1, k \end{cases}$$

tenglik o‘rinlidir.

Shunday qilib, $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazoda optimal oshkormas chekli-ayirmali formula quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\varphi_{n+k} = \varphi_{n+k-1} + \frac{e^h - 1}{(e^h + 1)} (\varphi'_{n+k-1} + \varphi'_{n+k}), \quad n = 0, 1, \dots, N-k, \quad k \geq 1.$$

8-teorema. $W_2^{(2,1)}(0,1)$ sinfda (29) ko‘rinishdagi oshkor chekli-ayirmali formula uchun xatolikning optimal bahosi

$$\left\| \ell^e |W_2^{(2,1)*}(0,1) \right\|^2 = h - \frac{(e^h - 1)(3e^h - 1)}{2e^{2h}}$$

formula bilan ifodalanadi.

Ushbu bahoning h bo‘yicha Teylor qatoriga yoyilmasi quyidagicha bo‘ladi:

$$\left\| \ell^e |W_2^{(2,1)*} \right\|^2 = \frac{h^3}{3} - \frac{h^4}{4} + O(h^5).$$

9-teorema. $W_2^{(2,1)}(0,1)$ sinfda (30) ko‘rinishdagi oshkormas chekli-ayirmali formula uchun xatolikning optimal bahosi

$$\left\| \ell^{im} |W_2^{(2,1)*} \right\|^2 = h - \frac{2(e^h - 1)}{e^h + 1}$$

formula bilan ifodalanadi.

Ushbu bahoning h bo‘yicha Teylor qatoriga yoyilmasi quyidagicha bo‘ladi:

$$\left\| \ell^{im} |W_2^{(2,1)*} \right\|^2 = \frac{h^3}{12} - \frac{h^5}{120} + O(h^6).$$

Ikkinchi bobning 5-paragrafida 6- va 7-teoremlarda berilgan (29) optimal oshkor va (30) optimal oshkormas chekli ayirmali formulalar yordamida topilgan sonli yechimlar va ularning xatoliklari keltirilgan. Bunda sonli yechimlar va ularning xatoliklari jadvallar, hamda shu jadvalga mos grafiklar orqali ko‘rsatib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning “**Gilbert fazosi $W_2^{(3,2)}(0,1)$ da optimal chekli-ayirmali formula qurish**” nomli uchinchi bobi $W_2^{(3,2)}(0,1)$ fazoda ixtiyoriy k natural soni uchun oshkor optimal chekli-ayirmali formula qurishga bag‘ishlangan. Bu yerda diskret argumentli optimal funksiya topilgan va undan $W_2^{(3,2)}(0,1)$ sinfda oshkor chekli-ayirmali formula xatoligining optimal bahosini topishda foydalanilgan. Keyin $W_2^{(3,2)}(0,1)$ sinfda oshkor chekli-ayirmali formula uchun xatolikning optimal bahosi hisoblangan. Bundan tashqari, diskret argumentli optimal funksiyasidan foydalanib, $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda oshkor chekli-ayirmali formulalarning optimal

xatoligi uchun yangi formula olingan. So'ngra, qurilgan oshkor optimal chekli-ayirmali formula yordamida ba'zi Koshi masalalari yechilib sonli natijalar olingan.

Ushbu bobning assosiy natijalarini keltirib o'tamiz.

10-teorema. *Adams tipidagi*

$$\varphi(hk) - \varphi(hk - h) \cong h \sum_{\beta=0}^{k-1} C_{\beta}^{(1)} \varphi'(h\beta) \quad (31)$$

oshkor chekli-ayirmali formulaning optimal koeffitsientlari

$$C_0^{(1)} = \frac{\lambda^k (e^h - he^h - 1)(\lambda^2 - 1)}{he^h (e^h - 1)(\lambda^{2k} - \lambda^2)}, \quad (32)$$

$$C_{\beta}^{(1)} = \frac{(e^h - he^h - 1)(1 - \lambda) [\lambda^{k+\beta} (e^h - \lambda) + \lambda^{k-\beta} (\lambda e^h - 1)]}{he^h (e^h - 1)(\lambda^{2k} - \lambda^2)}, \quad \beta = 1, 2, \dots, k-2, \quad (33)$$

$$C_{k-1}^{(1)} = \frac{(\lambda^{2k} - \lambda^2)(he^{2h} - e^h + 1) + (\lambda^{2k-1} - \lambda^3)(e^{2h} - he^{2h} - e^h)}{he^h (e^h - 1)(\lambda^{2k} - \lambda^2)} \quad (34)$$

tengliklar bilan ifodalanadi.

11-teorema. *Diskret argumentli $\overset{\circ}{F}(h\beta) = \overset{\circ}{d} e^{-h\beta} + \overset{\circ}{p}_0$ optimal funksiya*

$$\begin{aligned} \overset{\circ}{F}(h\beta) = & \left(\frac{e^{hk-h} (e^h - h - 1)}{4} + \frac{e^{hk-2h} (e^h - he^h - 1) [(e^h - 1)(\lambda^{2k-1} - \lambda^{2k-2} e^h) - \lambda e^h + 1]}{4(e^h - 1)(\lambda^{2k-2} - 1)(\lambda e^h - 1)} \right) + \\ & + \frac{e^{hk-2h} (e^h - he^h - 1)(\lambda e^{2h} - \lambda e^h - \lambda + 1)}{4(e^h - 1)(\lambda^{2k-2} - 1)(e^h - \lambda)} - \frac{\lambda^{k-1} (e^h - he^h - 1)(1 - \lambda^2)(e^{2h} - 1)}{4e^h (\lambda^{2k-2} - 1)(e^h - \lambda)(\lambda e^h - 1)} \cdot e^{-h\beta} - \\ & - h^2 \left(\frac{1}{4} + \frac{(e^h - he^h - 1)(1 + \lambda^{k-1})(\lambda^{k-1} e^h - \lambda^k + \lambda e^h - 1)}{2he^h (e^h - 1)(\lambda^{2k-2} - 1)(1 - \lambda)} \right) \end{aligned} \quad (35)$$

tenglik bilan aniqlanadi.

12-teorema. $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda, $m \geq 2$ holda Adams tipidagi oshkor chekli-ayirmali formulalar uchun xatolikning optimal bahosi

$$\left\| \ell \left| W_2^{(m,m-1)*} \right|^2 \right\| = (-1)^m \left\{ \frac{e^{-h} - e^h}{2} + \sum_{j=1}^{m-1} \frac{h^{2j-1}}{(2j-1)!} + h \sum_{\gamma=0}^{k-1} C_{\gamma}^{(1)} \left[\overset{\circ}{d} e^{-h\gamma} + P_{m-3}^{\circ}(h\gamma) + f_m(h\gamma) \right] \right\} \quad (36)$$

formula bilan aniqlanadi, bu yerda $C_{\beta}^{(1)}$ - oshkor chekli-ayirmali formulalarning

optimal koeffitsiyentlari, $\overset{\circ}{d} e^{-h\beta} + P_{m-3}^{\circ}(h\beta)$ - diskret argumentli optimal funksiya,

$$f_m(h\beta) = \frac{1}{2} \left((1 - e^h) \left(\frac{e^{h\beta-hk}}{2} - \frac{e^{hk-h\beta-h}}{2} \right) - \sum_{j=2}^{m-1} \left(\frac{(h\beta - hk)^{2j-2}}{(2j-2)!} - \frac{(h\beta - hk + h)^{2j-2}}{(2j-2)!} \right) \right).$$

13-teorema. (31) oshkor chekli-ayirmali formula uchun $W_2^{(3,2)}(0,1)$ sinfda xatolikning optimal bahosi

$$\begin{aligned}
\left\| \ell \mid W_2^{(3,2)*}(0,1) \right\|^2 &= \frac{(e^h - he^h - 1)}{2e^{2h}(\lambda^{2k-2} - 1)(\lambda e^h - 1)(e^h - \lambda)} \left[2(e^{2h} - e^h + 2)(\lambda^{2k-2} - 1)\lambda e^h + \right. \\
&+ (e^h - 3)(\lambda^{2k-4} - 1)\lambda^2 e^{2h} - (2e^{2h} - e^h + 1)(\lambda^{2k} - 1) \left. \right] + \frac{h(e^h - 1)}{2e^h} + \\
&+ \frac{h^2(e^h - he^h - 1)(\lambda^{2k-2}e^h - \lambda^{2k-1} + \lambda e^h - 1)}{e^h(e^h - 1)(\lambda^{2k-2} - 1)(1 - \lambda)} + \frac{h^3}{3}
\end{aligned} \tag{37}$$

formula bilan ifodalanadi.

Oshkor chekli-ayirmali formula (37) optimal xatoligining Teylor qatoriga yoyilmasi quyidagicha:

$$\begin{aligned}
\left\| \ell \mid W_2^{(3,2)*}(0,1) \right\|^2 &= \frac{h^5}{30(\lambda - 1)^2} \cdot \left[7\lambda + 8 + \frac{31\lambda^{10} - 1}{4(\lambda^8 + \lambda^6 + \lambda^4 + \lambda^2 + 1)} \right] - \\
&- \frac{h^6}{144} \cdot \frac{16\lambda^3(\lambda^2 - \lambda + 1) - 17\lambda^2(\lambda^4 + 1) + 8\lambda(\lambda^6 + 1) - 35(\lambda^8 + 1)}{(\lambda^4 + \lambda^2 + 1)(\lambda - 1)^4} + O(h^7).
\end{aligned}$$

Ushbu bobning 4-paragrafida 10-teoremada keltirilgan koeffitsiyentlar orqali aniqlangan optimal oshkor chekli-ayirmali formula va boshqa ma'lum formulalar yordamida topilgan taqribiy yechimlar, hamda ularning xatoliklari keltirilgan. Keltirilgan sonli natijalar jadvallar va bu jadvallarga mos grafiklar orqali taqdim etilgan.

XULOSA

Dissertatsiya ishida oddiy differensial tenglamalarga qo'yilgan Koshi masalasini taqribiy yechish uchun oshkor va oshkormas optimal chekli-ayirmali formulalar qurildi va funksiyalar sinfida ushbu formulalar xatoligining optimal baholari olindi.

Tadqiqot ishining asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda maksimallashtiruvchi element, ya'ni chekli-ayirmali formulalarning ekstremal elementi topildi;
2. $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda xatolikni chekli-ayirmali formula koeffitsiyentlari bo'yicha minimallashtirish orqali chiziqli tenglamalar sistemasi olindi;
3. $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfda, har qanday $m \geq 3$ uchun Adams tipidagi oshkor chekli-ayirmali formulalar optimal koeffitsiyentlarining ko'rinishi topildi;
4. $m = 2$ uchun oshkor va oshkormas chekli-ayirmali formulalarning optimal koeffitsiyentlari topildi, hamda $W_2^{(2,1)}(0,1)$ sinfda oshkor va oshkormas chekli-ayirmali formulalar xatoliklarining optimal baholari olindi;
5. $m = 3$ uchun optimal oshkor chekli-ayirmali formula qurildi va $W_2^{(3,2)}(0,1)$ sinfda oshkor chekli-ayirmali formula xatoligining optimal bahosini hisoblashda foydalanilgan diskret argumentli optimal funksiya topildi;

6. $W_2^{(3,2)}(0,1)$ sinfda oshkor chekli-ayirmali formula xatoligi uchun optimal baho hisoblab chiqildi va funksiyalarning $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ sinfida oshkor chekli-ayirmali formulalar optimal xatoligi uchun yangi formula olindi;
7. sonli natijalar keltirildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

ИНСТИТУТ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО

КАРИМОВ РОЗИК СОДИК УГЛИ

**ОПТИМАЛЬНЫЕ РАЗНОСТНЫЕ ФОРМУЛЫ В ГИЛЬБЕРТОВОМ
ПРОСТРАНСТВЕ $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$ И ИХ ПРИЛОЖЕНИЯ**

01.01.03 – Вычислительная и дискретная математика

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по
ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент–2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2024.1.PhD/FM1013.

Диссертация выполнена в Институте Математики им. В.И.Романовского АН РУз.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (ik-fizmat.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Шадиметов Халматвай Махкамбаевич
доктор физико-математических наук,
профессор

Официальные оппоненты:

Нормуродов Чори Бегалиевич
доктор физико-математических наук,
профессор

Худойберганов Мирзоали Уразалиевич
доктор физико-математических наук,
профессор

Ведущая организация:

Каракалпакский государственный университет

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2025 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за № _____). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2025 года.

(протокол рассылки № _____ от «_____» _____ 2025 года).

М.М. Арипов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

З.Р. Рахмонов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н.

Р.Д. Алоев

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученой степени доктора наук, д.ф.-м.н., профессор

ВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире большое количество задачи физики и техники приводят к краевым либо начально-краевым задачам для линейных и нелинейных обыкновенных дифференциальных уравнений. При этом число задач, имеющих аналитическое решение, ограничено. Это приводит к необходимости искать приближенные решения, пользуясь для этого различными численными методами. Достаточно эффективным методом численного решения задач математической физики является метод конечных разностей или метод сеток. Поэтому построения оптимальных явных и неявных конечно-разностных методов для приближенного решения задачи Коши для обыкновенных дифференциальных уравнений, исследованных свойств этих оптимальных численных методов и оценке их погрешности на классах функций являются актуальной задачей современной вычислительной математики.

В настоящее время в мире во многих инженерных проблемах интересуются в основном решениями физических задач, а не точными решениями математических. Современные представления о законах природы позволяют формулировать задачи, которые более общи и сложны по сравнению с теми, которые мы можем на самом деле решить. Упрощения, основанные на физических или инженерных соображениях, нужно рассматривать как приближения, формирующие по крайней мере одну стадию процесса решения. Например, дискретизация непрерывных задач. Приближенный метод для решения дискретных задач является оптимальным, если на этом методе достигается нижняя грань в погрешности метода на классах. Поэтому нахождение оптимальных коэффициентов и вычисление оптимальной оценки погрешности конечно-разностных формул на классах функций является одним из приоритетных научно-исследовательских работ.

В нашей стране большое внимание уделяется такому важному направлению, как разработка оптимальных методов численного анализа для решения фундаментальных и прикладных задач и оценки погрешностей этих методов в функциональных пространствах. В частности, большое внимание уделялось теории численного интегрирования вычислительной математики, особенно в гильбертовом пространстве, где были получены важные результаты по построению оптимальных конечно-разностных формул и оценки погрешности этих формул на классах функций. Проведение научных исследований на уровне международных стандартов по таким приоритетным направлениям «алгебра, математический анализ, теория дифференциальных уравнений, функциональный анализ, теория вероятностей, вычислительной математики и математического моделирования»² в деятельности Института математики имени В.И.Романовского АН Руз, является одной из основных задач. Для обеспечения выполнения постановления важно построить конечно-разностные формулы на классах функций.

² Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4708 «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики» от 07 мая 2020 года.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит решению задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан УП-4947 от 07 февраля 2017 года “О стратегии действия по дальнейшему развитию Республики Узбекистан”, УП-60 от 28 января 2022 года “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, в постановлениях ПП-2789 от 17 февраля 2017 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности”, ПП-2909 от 20 апреля 2017 года “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, ПП-3682 от 27 апреля 2018 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы практического внедрения инновационных идей, технологий и проектов”, ПП-4708 от 07 мая 2020 года “О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики”, а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной области деятельности.

